



BADIIY MATNDA DIALEKTIZM VA OKKAZIONALIZMLAR (Tog‘ay Murod asarlari misolida)

P.f.d., prof. **Sh.Sh.Yuldasheva**,
f.f.n., dots. **N.Jiyanova**,
f.f.n., dots. **S.Maksumova**.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent
e-mail: shahlondpi@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada dialektizmlar va muallif okkazionalizmlarining badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari yoritilgan. Shevaga xos so‘zlarning muallif va personajlar nutqida turli uslubiy bo‘yoqlarga ega bo‘lishi, xalqona so‘zlardan va g‘ayriodatiy so‘z yasash usuli yordamida yasalgan yangi so‘zlardan foydalanishdagi ijodkor mahorati tavsiflangan. Tog‘ay Murod asarlari misolida dialektizm va okkazionalizmlarning tasnifi berilgan. Ishda lisoniy tahlil, tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tarixiy taqqoslash, semantik-stilistik tahlil, metodlaridan foydalanildi. O‘zbek shevalaridagi so‘zlarning leksik xususiyatlarini o‘rganish xalqning yashash tarzini, kasb-kori, xarakterini o‘rganishga yo‘l ochishi, o‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi uchun qimmatli ma‘lumotlar berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: leksika, dialektizm, okkazionalizm, badiiy matn, so‘z yasalishi.

Аннотация: В статье освещаются стилистические особенности диалектизмов и авторских окказионализмов в литературном тексте. Описывается приобретение различных стилистических оттенков диалектных слов в речи автора и персонажей, творческое мастерство использования народных слов и новые слова, созданные с помощью нетрадиционных методов словообразования. Классификация диалектизмов и окказионализмов дается на примере произведений Тогая Мурада. В работе использованы методы лингвистического анализа, классификации, описания, сопоставительно-исторического сравнения, семантико-стилистический метод. Изучение лексических особенностей слов в узбекских диалектах может открыть путь к изучению образа жизни, профессий и характера людей, а также предоставить ценную информацию для лексикологии и лексикографии узбекского языка.

Ключевые слова: лексика, диалектизм, окказионализм, художественный текст, словообразование.

Abstract. This article explores the stylistic features of dialectalisms and authorial occasionalisms in literary texts. It describes the acquisition of various stylistic nuances of dialectal words in the speech of the author and characters, the creative use of vernacular words, and new words created through unconventional word formation methods. A classification of dialectalisms and occasionalisms is provided using the works of Togay Murad as an example. The work utilizes methods of linguistic analysis, classification, description, comparative-historical comparison, and the semantic-stylistic method. Studying the lexical features of words in Uzbek dialects can pave the way for the study of lifestyles, professions, and character, as well as provide valuable information for the lexicology and lexicography of the Uzbek language.

Key words: lexicon, dialectism, occasionalism, literary text, word formation.

Kirish. Xalq tarixining jonli guvohi sifatida til kishilarning hayot tarzi, tarixiy tajribasi, ma‘naviy-madaniy kechmishini o‘zida mujassam etadi. Tildagi har bir unsur o‘zining paydo bo‘lish tarixi, ijtimoiy o‘rni va hayotiy asosiga ega. Shunga ko‘ra tilning xalq hayoti tajribalarini to‘plovchi – akkumulativ funksiyasi uning eng asosiy



vazifalaridan sanaladi. Har bir umumxalq tili qator sheva va dialektlar yig'indisidan iborat. Har bir dialekt o'sha hududda yashovchi xalqning genezisini, hayot tarzini, har xil geografik sharoitlarga bog'liq holda unda yuzaga keladigan leksik birliklarning paydo bo'lish sabablarini, ildizini o'zida aks ettiradi. Taqdim qilinayotgan maqolada ham badiiy asarlar matnida qo'llanilgan o'zbek tilining bir bo'lagi – o'zbek shevalaridagi muayyan so'zlarning tarixiy ildizlariga va leksikani boyituvchi vosita – okkazonalizmlarga lisoniy sharhlar berish va izohlash **maqsad** qilingan.

Badiiy matnlarda shevaga xos so'zlarning qo'llanilishi muayyan hududdagi xalqning yashash tarzini, kasb-kori, xarakterini o'rganishga yo'l ochadi. Tog'ay Murod asarlarida aks etgan hudud o'zbek shevalaridagi so'zlarning leksik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi uchun qimmatli ma'lumotlar berishi mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda o'zbeklar turkiy xalq vakillari – qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz va turkmanlar bilan yondosh yashaydi. Mazkur holat hududdagi o'zbek shevalariga turkiy elat va xalq tillarining ta'siri katta bo'lishiga olib keladi. Shunday ekan, so'zlarni tadqiq etish o'zbek tili lug'at tarkibining unutilayozgan til elementlarini, til tarixidagi noaniq leksik-grammatik hodisalarni o'rganish uchun imkon yaratadi. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Shuni e'tiborga olib, hudud shevalardagi dialektal birliklar asosida mazkur xalqning umumturk dunyosidagi o'rnini va o'zbek xalqi etnogenezining shakllanishidagi ishtirokini belgilashga katta yordam berishi mumkinligi haqidagi gipoteza ilgari surildi. Yozuvchi ijobiy laboratoriyasidagi okkazonal birliklar esa ijodkorning so'z qo'llashdagi yuksak mahoratini ko'rsatuvchi ijodiy o'ziga xoslik va shu bilan birgalikda yasama so'zlar sifatida o'zbek tili leksikasini boyituvchi muhim jihatlardir.

Materiallar va metodlar. Maqolada badiiy matnda qo'llangan dialektizmlar va okkazonalizmlarni aniqlash maqsadida yozuvchi Tog'ay Murod asarlariga murojaat qilindi va ulardan shevaga xos hamda g'ayriodatiy yasama so'zlar – okkazonal leksik birliklar to'plandi va tanlab olindi. Tanlangan, saralangan dialektal va okkazonal birliklar tahlilga tortildi. To'plangan materiallar etimologik, filologik lug'atlardagi izohlar bilan birgalikda qiyosiy o'rganildi. Ishda lisoniy tahlil, tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tarixiy taqqoslash, semantik-stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Dialektik va okkazonal birliklarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari, semantik tahlili tadqiqotning dolzarbligini oshirishga xizmat qildi. Badiiy matn tilini tadqiq qilishga oid mahalliy, qardosh, xorijiy olimlarning tadqiqotlarida dialektal va okkazonal birliklarga tegishli bo'lgan barcha materiallar mazkur ilmiy ishga asosiy manba vazifasini o'tadi. Bu manbalarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash va tizimlashtirish asosida nazariy xulosalarga kelindi.



Adabiyotlarga sharh. Dialektizm til lug‘at tarkibini boyituvchi ichki manba sanaladi. O‘zbek shevalarida til lug‘at boyligini to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan minglab so‘zlar bor. (Shoabdurahmonov, 1993: 26 – 30). Milliy tillarning izohli lug‘atlarida dialektizmlar salmog‘i alohida o‘rin egallaydi. Xususan, o‘tgan asrda chop qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga 715 ta shevaga xos so‘z kiritilgan bo‘lsa (Jomonov, 1991: 55), 2020-yilda nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” oldingi nashrdan 1,6 barobar ko‘p, ya‘ni 1177 ta sheva so‘zni qamrab oldi (Khasanov, 2022). Albatta, o‘zbek tili leksikasidagi bu holat o‘tgan asr oxirlaridan boshlangan jamiyatdagi muhim o‘zgarishlar, jarayonlarning in‘ikosidir. Binobarin, dialektizm va iboralarning adabiy tilni boyitishida badiiy asarlarning ahamiyati o‘ziga xosdir. Ijodkorlar o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan tushunchaga adabiy tildagi mos so‘zlarni tanlash bilan cheklanishmaydi, balki sheva so‘zlariga ham murojaat qilishadi. Zotan, “Mirtemir domla o‘zbekcha so‘ylagani, o‘zbekcha o‘ylagani, yorug‘ dunyoni o‘zbekcha idrok etgani bilan ko‘ngilga yaqin. Qoraqalpoq, qozoq va boshqa turkiy qardoshlarning ham aytuv-aytishuvlarini mukammal bilgan, qardoshlar ohangini o‘zimizning sof o‘zbekcha ohanglarga bexato payvand eta olgani bilan ko‘ngilga yaqin” (Murod Muhammad Do‘st, 2023). Tog‘ay Murod ta‘biri bilan aytganda, “o‘z dunyosi bor, o‘z yo‘li bor, o‘z tili bor” ijodkorlar asarlarida xalqona ifodalar, iboralar bo‘rtib turadi. Shu bois ham lingvistikada badiiy matnlardagi dialektizmlarni va ularning adabiy tilga ta‘siri masalasini o‘rganish uzoq tarixga ega.

Tilshunoslikda badiiy va publitsistik matnlarda okkazonalizmlarning qo‘llanilishi masalasini jadal o‘rganish o‘tgan asr o‘rtalaridan boshlangan bo‘lsa, turkiy tilshunoslikda bu borada XXI asr boshlaridan yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. Dastlab E.I.Xanpira tomonidan dissertatsion tadqiqot ishi sifatida o‘rganilgan okkazonalizmlar “ikkinchi darajali neologizmlar” (N.M.Shanskiy), “individual-muallif so‘zlari” (индивидуально-авторские) “tug‘ilib” umumiste‘molga kira olmagan, neologizmligicha qolgan so‘zlar” (V.V.Lopatin), “til hodisasi emas, balki nutqiy hodisa mahsuli bo‘lgan so‘zlar” (Feldman 1957: 68), “tasodif bilan bog‘liq so‘zlar (Matveeva, 2003: 192), “til me‘yorlaridan tashqaridagi barcha turdagi neologizmlar” (L.Bauer, D.Kristal, P.Xoenxaus), “unumsiz modelga ko‘ra shakllangan, faqat ma‘lum bir kontekstda qo‘llaniladigan so‘z” (слово, образованное по непродуктивной модели, используемое только в условиях данного контекста) (Rozenal, 2008: 174), “so‘z yasash qoidalarining buzilishi asosida vujudga kelgan so‘zlar” tarzida talqin va tadqiq qilib kelinmoqda. Jahon lingvistikasida okkazonalizmlarni korpus lingvistikasi yutuqlari asosida yangi yondashuvlardan tadqiq qilish tajribalari mavjud (Dressler, Wolfgang & Tumfart, Barbara, 2017). Okkazonalizmlarni yangicha yondashuvlardan tadqiq qilish bo‘yicha rus tilshunosligida Y.N.Pasula, qozoq tilshunosligida L.Yespekova, A.B.Beysenbaylar



tomonidan dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek tilshunosligida ham okkazonalizmlar o'zbek tilidagi nutqiy g'ayriodatiy yasallishlar (S.I.Toshaliyeva), ijodiy jarayonda favqulodda yaratilgan so'zlar (B.Umurkulov) sifatida monografik planda tadqiq qilingan. Aksariyat tadqiqotlarda muayyan ijodkor asarlarida okkazonalizmlarning qo'llanilishi (Kadirov Z.T.), shuningdek, tarjima asarlarda okkazonalizmlarni berish masalasi (Turdiyeva Sh.B., To'xtasinova O.) ilmiy tadqiq qilinmoqda.

Natijalar va muhokamalar. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi (Ashurboyev, 2016: 3). Ma'lumki, ular ma'lum bir hudud doirasida qo'llaniladigan, faqat o'sha hudud uchun tushunarli bo'lgan til birligidir. Masalan, *qirriq, xirpi, o'tirik, cho'kich, muvadak, tullak* kabilar. Umumxalq tilining muhim qismi bo'lgan dialektizmlar, garchi asosan so'zlashuv uslubiga xos birlik sanalsa-da, ulardan badiiy adabiyotda foydalanishga yo'l qo'yiladi (Karimov, 2010: 111). Chunki badiiy adabiyot obrazlilikka asoslangan bo'lib, yozuvchi mana shu obrazning qaysi hudud vakili ekanligini ifodalashda sheva so'zlaridan foydalanadi. Bu esa boshqa til birliklari kabi sheva so'zlarining ham badiiy asarlar tilida ma'lim uslubiy maqsad va uslubiy vazifaga xoslanishini ifodalaydi. Sheva so'zlar badiiy asarning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim vositalardir. Yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadilar. (Qurbonova, 2014: 62). Sheva har bir xalqning umumiy milliy tili tarkibiga kiradi, lekin ular shu milliy adabiy tildan o'zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi (Enazarov, 2012: 20). Mana shu xususiyatlarni tahlil etish uslubshunoslikning asosiy vazifasi sanaladi. Har bir yozuvchining so'z qo'llash uslubidan kelib chiqqan holda shevaga xos so'zlarni tahlil etish tilning jozibadorligini namoyon etish bilan birga ijodkorning o'ziga xos mahoratini ham belgilab beradi.

Tog'ay Murod o'zbek adabiyotiga milliylik ruhini qaytargan, milliy qadriyatlarni o'z asarlarida ifodalay olgan, xalqning urf-odatlarini to'g'ri va o'z o'rnida asarlarida jamlay olgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslarning fikricha, Tog'ay Murod asarlarida so'nggi yuz yilda o'zbek millati boshidan kechirgan fojialarning aniq, yaxlit tasavvuri mujassam. Bu tarixiy davrda o'zbek xalqi qanday yashaganligini asarlari orqali aniq ifodalab bergan yozuvchidir. Bunga esa ijodkor o'sha davrda xalq tilida qo'llanilgan til birliklarini o'rinli qo'llay olganligi bilan erishgan. Yozuvchi adabiy tildagi lisoniy birliklardan o'rinli foydalanganini alohida e'tirof etgan holda ta'kidlash o'rinliki, adib o'zi tug'ilib o'sgan yurtning til birliklaridan foydalanishga moyilroq ekanligini kuzatish mumkin. Yozuvchining deyarli barcha asarlarida til hodisalaridan, ya'ni til



birliklaridan, shuningdek, fonostilistik vositalardan, shevaga xos va yangi yasalma soʻzlardan keng foydalanganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham, Togʻay Murod yaratgan “Dehqonqul (“Otamdan qolgan dalalar” romani bosh qahramoni – taʼkid bizniki) nutqi Surxon vohasi lahjasi libosini kiyib, oʻquvchi qulogʻiga ajabtovur eshitiladi” (Solijonov, 2002). Yozuvchi asarlarida qoʻllangan aksariyat soʻzlar kitobxonlarni oʻylashga, mazmunini tahlil etishga va har bir til birligining mohiyatini anglashga undaydi. Vaholanki, bu oʻquvchiga u qadar qiyinchilik tugʻdirmaydi. Zotan, adib shevasi Oʻzbekistonda eng koʻp tarqalgan qipchoq lahjasiga mansubdir. Bu lahja vakillari Oʻzbekistonning deyarli barcha viloyatlari mavjud. Qipchoq lahjasi shevalari oʻz fonetik belgilariga koʻra “j”lashgan va koʻpincha qishloq shevalari” deb atalib kelingan boʻlsa ham, kunimizda shaharlarning kengayishi, aholi migratsiyasi tufayli qipchoq lahjasi shevalarida gaplashuvchilar Andijon va Fargʻona viloyatlarida ham, Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasining deyarli barcha tuman va shaharlarida istiqomat qilishadi.

Bizga maʼlumki, shevalar fonetik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, grammatik dialektizmlar, sintaktik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar kabi turlarga tasniflanadi. Togʻay Murod asarlaridan olingan misollarimizni ham tasnif asosida qarab chiqamiz.

Togʻay Murod asarlarida leksik dialektizmlarning oʻrni. Ogʻzaki soʻzlashuv uslubiga xos talaffuzning personajlar nutqida berilishi ham badiiy uslubda baʼzan muhim ahamiyat kasb etadi. Tovushlarning alohida talaffuz etilishi tufayli soʻzlar, soʻz birikmalari va gaplar oʻzgacha maʼno qimmatiga ega boʻlishi mumkin (Karimov, 1992: 140).

Har bir ijodkorning soʻz qoʻllash bilan bogʻlik mahorati mavjud. Shuning uchun ham asarlarni bir xil ohang, bir xil hayajon va bir xil entikish bilan oʻqib boʻlmaydi. Kitobxonni turlicha holatga solish bu leklik birliklardan qay darajada foydalanilganligiga bogʻlanadi.

Leksik dialektizmlar bu bir hudud doirasidagina qoʻllaniladigan sheva soʻzlar boʻlib, aksariyat oʻrinlarda yozuvchilar leksik dialektizmlardan adabiy tilda mavjud soʻzlarga sinonim sifatida foydalanishadi. Odatda badiiy matnda qoʻllangan shevaga xos soʻzlarning ayrimlari izoh bilan qoʻllansa, aksariyat oʻrinlarda ularning maʼnolarini mustaqil izlash va topish taqozo qilinadi. Bu borada Togʻay Murodning asarda qoʻllanilgan dialektal soʻzlarning maʼnosi, jummlar mazmunini chaqishga, soʻz maʼnosini izlab topishga undovchi oʻziga xos ijod uslubi mavjud. Chunki adib Sh.Abbosov taʼkidlaganidek, “tilimizning nozik qirralarini, zaxira lugʻat boyligini yaxshi biladi. U ishlatgan soʻzlarni dafʼatan uchratib qolsangiz, tushunmaysiz. Hatto



ana shu soʻzlar oʻzbekchami oʻzi, deyishimiz ham mumkin” (Ahmedova, 2008: 14).
Quyidagilar fikrimiz dalilidir:

1. Hotam polvon yoqasidan ushladi. Bir-ikki silkidi. Avaylab **chil** berdi.

– Yo, pirim! – dedi.

Chil bermoq soʻzi kurashda yiqitmoq maʼnosida qoʻllanilgan. Kurashda qoʻllaniladigan leksik birlik. Aldab yiqitish maʼnosini ifodalaydi. (Murod, 1994b: 3)

2. Elga **kadida** qatiq tutadi. (Murod, 1994a: 9)

Kadi adabiy tildagi qovoq soʻzining sinonimi siifatida shevada qoʻllaniladi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da qovoq soʻzining ikki maʼnosi izohlangan. Birinchi maʼnosi palak otib oʻsadigan, shapaloq bargli, karnaysimon yirik sariq gulli poliz oʻsimligi va uning turli shakllarda boʻladigan yirik hosili (ЎТЇЛ, 1981: 591). Xalq shevalarida bu poliz oʻsimligining *kadi* variantidan foydalaniladi.

3. Enkayib, oʻng qoʻlini oldinga **sermab** bora berdi. (Murod, 1994b: 4)

Sermab soʻzi qoʻlini ishora qilib silkitdi maʼnosini ifodalaydi.

4. Shu vaqt, devor uzra roʻmoli boshlar qora berdi: ayollar davraga qaray berdi.
Boʻri polvon ovozi koʻtarib aytdi:

– Ay, **poshikastalar**, devordan koʻp boʻylay berma, polvonlarning xayolini boʻlasan! (Murod, 1994b:7)

5. Olam koʻm-koʻk. Falak zangori. Qishloq etagidagi **podayotoq** tumonat odam.

Podayotoq keng dalada mollar turadigan joy maʼnosida qoʻllanilgan. (Murod, 1994a: 9)

6. – Otang bozor ketdi, keladi. – deydi onamiz. Men endi onamiz ketidan **iyaraman**. (Murod, 1994a: 8)

Iyaraman soʻzi adabiy tilda qoʻllaniladigan *ergashmoq* soʻzining sinonimi sifatida qoʻllanilgan.

7. – Dehqonqul! Katta ketsam-ketmasam, qishlogʻimizga oʻris zotini **yonashtirmayman!** *Yonashtirmoq* soʻzi adabiy tilda “yaqinlashtirmaslik”, “kiritmaslik” maʼnolarida qoʻllanilgan. (Murod, 1994a:)10

Togʻay Murod asarlarida fonetik dialektizmlarning oʻrni. Ogʻzaki nutq jarayonida soʻzlar tarkibida tovush ortishi, tushishi, tovush qoʻshilishi, tovushlarni qavatlab qoʻllash, tovushlarni almashtirib, oʻzgartirib qoʻllash kabi hodisalar mavjud boʻlib, ular fanda **fonetik dialektizmlar nomi bilan** ataladi. Ogʻzaki nutqda tovushlarni choʻzish, qavatlash orqali uslubiy vazifa ifodalanadi. Olimlarning fikriga koʻra, dialektal fonetik hodisalar badiiy adabiyot tilida ham mahalliy koloritni berishga, ham erkalash, hurmat singari qator ottenkalarni ifodalashga va boshqa turli badiiy-estetik vazifalarni berishga xizmat qilishi mumkin (Karimov, 1992: 140). Dialektal fonetik hodisalar qanday uslubiy vazifaga xoslanganligini tahlil etish uslubshinoslikning vazifasi hisoblanadi. Badiiy asar voqealari obrazlar va ularning



nutqida uchraydigan tovushlarni o'zgartirib qo'llash bilan bog'liq holda ochib beriladi. Chunki fonetik dialektizm obraz nutqida tovushlarni noto'g'ri talaffuz etilishi natijasida yuz berishi bilan birga ularning turli xil ruhiy holatini ham ifodalaydi. Bunda unli va undosh tovushlar obraz xarakterini ochib berishda, ijobiy yoki salbiy fikr ifodalashda uslub nuqtayi nazaridan qo'llaniladi. Bunday hodisani Tog'ay Murod asarlarida ham ko'p uchratish mumkin. Yozuvchi unli va undosh tovushlardan foydalangan holda asar mazmunini, ruhini to'g'ri yoritib bergan. Asarni o'qigan kitobxonada tanti o'zbek xalqining soddaligi, beg'uborligi, mehmondo'stligi, bag'rikengligini kuzatish mumkin. Bularning barchasi til birliklari va fonostilistik vositalar – unli va undosh tovushlar uslubiy vazifalari tufayli namoyon bo'ladi (misollar Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Yulduzlar mangu yonadi” asarlaridan olindi):

1. Chaqirish, chorlash ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan:

– *Odamlar-u odamlar, tog'da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! Bugun haaamma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to'yiga, heeeey! Chu, jonovor!* (Murod, 1994b: 1)

– *Oyxol xola-yu, huvv Oyxol xola! – demish ovoz keldi.* (Murod, 1994b: 9)

2. Ovoz kuchining balandligini ifodalash uchun qo'llanilgan:

– *Halool!* – *Tilovberdi polvonning haqi berilsin! – Xayriyat, odamlar ustiga tushdi, agar shu zarb bilab yerga tushganda ichagi uzilardi!* (Murod, 1994b: 42)

Bo'ri polvonni dast ko'tardi-da, zarb bilan orqaga otib yubordi. – Aaaa! – deya ayqirdi. (Murod, 1994b: 27)

– *Yo-yo-yo! – deya ayqirdi. – Suuur! – deya jo'r bo'ldi davra.* (Murod, 1994b: 37)

– *Chaqiringlar, shu yaqinda bo'lsa, ovoz beradi! – Bo'ri polvonooo!* (Murod, 1994b: 55)

3. Ma'qullash, xursandlik ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan:

– *Bali-balii!* *Gurs!* – *Barakalla, Sher polvon, bundan ziyod yiqitib bo'lmaydi!* (Murod, 1994b: 12)

4. Buyruq berish ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan:

– *Ko'tarayotganingda orqaga ko'p chalqayma, bu xavfli! Ko'taar!* (Murod, 1994b: 12)

5. Norozilik ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan: – Uuuf! – deb yubordi.

– *Uff, bo'lmadi, bo'lmadi! – Qo'lini ushlab qololmadi! Yoki: Eski rais bosh irg'ab-bosh irg'ab ichini tortdi. – Ufff, dunyo shu ekan-da... Ijroqo'm raisi afsusli qo'l siltadi. – Eee! – deya ijirg'andi.* (Murod, 1994b: 42)



6. Sevish, yaxshi ko‘rish, erkalatish ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan: *Yollariga yuzlarimni suykayman... Ay, aaay!.. Shunda... shunda, olis-olislardan rubobiy qo‘shiq keladi, rubobiy qo‘shiq! Men sergak bo‘laman.* (Murod, 1994b: 58)

7. Xursand bo‘lish ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan: *Qo‘llarini burab burab... o‘tirgan joyida o‘ynab qo‘ya berdi! – Ha, jooon! – deya zavqlana-zavqlana qiyqirdi.* (Murod, 1994b: 56)

8. Qo‘llab-quvvatlash ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan:

— *Ha, do‘o‘st! Tilovberdi polvon Maksimning ichidan chil berib chapga, so‘ng, o‘ngga ko‘tardi. Shiddat bilan keyinga surdi.* (Murod, 1994b: 36)

Asarda bolalar nutqiga xos talaffuz o‘rinlardan ham unumli foydalangan. Bu esa asar ta’sirchanligini yanada oshirgan: *Bo‘ri polvon atayin shu Bolani yetaklab keldi. – Otingiz nimaydi, polvon? – dedi. – Shukuy! – E, yashang, Shukur polvon!* Bunda bola nutqida “r” tovushini aytolmaslik holati ifodalangan. (Murod, 1994b: 3)

Shuningdek, so‘z oxiridagi tovushlarning tushib qolishi va almashinish hodisalaridan ham foydalangan: *Amir polvon: – E, polvon bova, master sportga teng kep bo‘ladimi? – dedi. – Amir, Tilovberdini berman yubor! Tilovberdi, munda ke! – dedi.* (Murod, 1994b: 25)... *Bo‘ri polvon o‘zicha. – Juda muloyim. Olishlariyam o‘z tabiatidan kep chiqadi.* (Murod, 1994b: 27)

So‘z oxirida tovushlarning tushib qolishi, tovush almashinish, qo‘shilish hodisasi og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, asarida obraz nutqi orqali ifodalagan. Yozuvchi yashagan hudud aholisi nutqida *kel, bor, ol* kabi so‘zlar oxiridagi tovushlar og‘zaki nutq jarayonida tushib qoladi. “*Kel*” so‘zi o‘rnida “*ke*”, “*bor*” so‘zi o‘rnida “*bo*”, “*ol*” so‘zi o‘rnida “*o*” variantlaridan foydalangan. Bulardan tashqari asarda dissimilyatsiya hodisasiga uchragan so‘zlarni ham uchratish mumkin: – *Yur, chaylaga, – dedi Nasim. – Yo‘q, ishim zaril.* (Murod, 1994b: 14)

Tog‘ay Murod asarlarida yangi yasalmalarning o‘rni. “Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo yangi so‘z yasashga intilib keldilar. Bu qonuniyatdir. Chunki so‘zning tasviriy imkoniyatidan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g‘ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati ijodkorlarni ana shunday yo‘l tutishga undaydi” (Karimov, 1992:87). Ana shu ehtiyoj tufayli adiblarning dunyoqarashigagina xos bo‘lgan, faqat ularning asarlaridagina uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan yasalmalar vujudga keladi.

O‘zbek tilshunosligida okkazional leksikaning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, lug‘aviy va morfologik okkazional so‘zlar, ularning uslubiy vazifalari muayyan darajada tadqiq qilingan (Ashirboyev, 2016:27; Enazarov, 2012:26). Ammo o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan okkazional so‘zlarning xarakterli materiallari hali yetarli darajada to‘plangan va tadqiq qilingan deb bo‘lmaydi. Bunday material



turli adiblarning badiiy asarlarida mavjud. Mana shunday manbalar qatoriga Tog‘ay Murod asarlarini ham qo‘shish mumkin. Binobarin, Tog‘ay Murod asarlarini o‘qir ekanmiz, ularda bir qator xarakterli okkazional so‘zlar kuzatiladi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin (misollar Tog‘ay Murodning 2008-yilda nashr qilingan “Tanlangan asarlar”idan olindi):

1. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan (morfologik) okkazionalizmlar.

Ma‘lumki, *-la*, *-lan* so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, asosan boshqa so‘z turkumlaridan fe‘l yasaydi. Masalan, *gulladi*, *qoraladi*, *sekinladi* va h.k. Tog‘ay Murod asarlarida *-la* qo‘shimchasi turli so‘z turkumlariga qo‘shilib, yangi yasalmalar hosil qilinganligini ko‘ramiz.

a) ot so‘z turkumiga qo‘shilib hosil qilingan yangi yasalmalar: *Qoplon yotib yotolmadi*. *Ayvonlab*, *hovli chirog‘ini yoqdi* (241-b.). *Makiyon viqor bilan qadamladi*, *vazmin-vazmin qadamladi*. (241-b.). *Gala-gala chumchuqlar o‘rkachma-o‘rkach uchib donladi*. (241-b.) *Ta‘tillanib*, *podayotoqqa bordim*.(139-b.) *Tarnovdan tushmush yomg‘ir ko‘lmaklandi*.(241-b.);

b) sifat so‘z turkumiga qo‘shilib hosil qilingan yangi yasalmalar: *Bir sho‘xlashibdi-da!* *O‘tadigan dunyoda bir sho‘xlashayin*, *debdi-da!*(185-b.) *Polvonlar siyrakladi*. (35-b.) *Ko‘z oldim zim-ziyolandi*.(193-b);

v) ravish so‘z turkumiga qo‘shilib hosil qilingan yangi yasalmalar: *Choponimni yelkamga tashlab*, *tashqariladim*. (139-b.) *Qani ichkarilangizlar*. *Do‘ppili odam ichkariladi*. (139-b.) *Daryodan kechib o‘tib*, *yuqoriladim*. (159-b.);

Shuningdek, boshqa so‘zlarga qo‘shilib yangi yasalmalar hosil qiladi: *Tun yarimladi*. (35-b.) (songa); taqlid so‘zga: – *Bo‘ri polvon qani? – deya do‘qladi*.

Ijodkor tomonidan yaratilgan yangi okkazional so‘zlar tahliliga e‘tibor qaratamiz.

Kavkabiston. *Oy to‘lishib qoldi. Yoz oydini oppoq bo‘ldi. Falak kavkabiston bo‘ldi.* “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kavkab so‘zi qayd etilgan va yulduz deb izohlangan. (5-290-bet)

Yozuvchi osmondagi son-sanoqsiz yulduzlarni tasvirlash uchun “Falak kavkabiston bo‘ldi” deb yozadi va yangi okkazional so‘z yasaydi.

Yulduzzor. O‘zbek tilida “o‘rikzor”, “gulzor”, “olmazor” modeli yasalmalar anchagina. Bunday yasalmalar biror joyda (o‘rinda) biror narsa o‘simlik, daraxt va boshqalar) ko‘p o‘sadigan maydonni anglatadi. Tog‘ay Murod ushbu yasalish qolipidan foydalanib, **yulduzzor** okkazionalizmini yasagan.

Kavkabistonda bir yulduz yulduzzor oralab sayr etdi. Bu, Yer yo‘ldoshi bo‘ldi.(267-bet)



Kalladosh. *Kalladosh bo'lgandan keyin taniymiz-da... dedim.*(190-bet) *Ko'cha-ko'ylarda ulug' shoir bilan shishadosh bo'ldi.* (385-bet) *Serjant Orziqulov jim bo'lib qoldi. Quroldoshlari ko'z o'ngidan bir-bir o'tdi.* (401-bet)

“Hozirgi o'zbek tili so'z yasashiga oid ilmiy ishlar, shuningdek, darslik va qo'llanmalarda

-dosh qo'shimchasi shaxs oti yasovchi qo'shimchalar qatorida berilgan. Haqiqatan ham, -dosh qo'shimchasi yordamida yasalgan otlar shaxs otlari hisoblanadi. Lekin hozirgi o'zbek adabiy tili materiallarining ko'rsatishicha, -dosh qo'shimchasining vazifasi faqat shaxs oti yasash bilan cheklanmaydi. Bu qo'shimcha:

1. Bir tipdagi shaxs otlari, ya'ni so'z yasash asosidan anglashilgan narsaga teng aloqador, teng ishtirokchi shaxs ma'noli otlar yasaydi: sinfdosh, kasbdosh, vatandosh.

2. Bu qo'shimcha yordamida hosil qilingan yangi so'zlarga e'tibor berilsa, so'z ustalari uning imkoniyatidan juda mohirlik, sezgirlik bilan foydalanganini ko'ramiz” (Karimov, 1992: 76). Tog'ay Murod -dosh qo'shimchasidan **kalladosh, shishadosh, quroldosh** kabi yangi so'zlarni yasab, okkazonalizmlarni hosil qilgan.

Tog'ay Murod ijodiy laboratoriyasida o'zbek tilidagi aksariyat yasovchi qo'shimchalar bilan o'ziga xos so'zlar yasalganligini kuzatish mumkin:

-chi: *El-xalq uy-uyiga tarqaldi. Navro'zchilar ko'ngli ko'klam bo'ldi. Oymomo ko'ngli...hamon qish bo'ldi!* (266-bet)

-chilik: *Qanchadan-qancha ko'ngil qorong'ichiliklar bo'ladi.* (367-bet)

-g'ich: *Ichkari yarmi bo'm-bo'sh, yarmida o'tirg'ichlar bo'ldi.* (359-bet)

O'rischani chala-chulpa bilong'ich juvozkash tilmoch bo'ldi. (347-bet)

-boz: *Qo'mitada o'z nasrbozi bo'ldi, o'z nazmbozi bo'ldi. Tanqidchi Shuhrat Umiraliyev otli o'z maqtovbozi bo'ldi.* (380-bet)

-ajak: *O'zini-o'zi oqlayajak gap topdi.* (371-bet)

-xo'r: *Ostonasidan suyunchixo'r arimadi.* (346-bet)

2.Kompozisiya usuli bilan yasalgan okkazonalizmlar.

Original qo'llanishlar yozuvchi asarlari tilida uchraydigan **qisirpoya, manglaydo'zi, do'rjiroq, qo'l chil, xushtalqin, hakkalabosim, belqars** kabi qo'shma so'zlarda ham ko'rinadi.

Ko'pkari ekinsiz qisirpoyada bo'ldi. (155-b.) *Peshonalarda manglaydo'zilar yal-yal bo'ldi.* (227-b.) *Senga qiyoqni do'rjiroq berishida gap bor, de.* (28-b.) *Qo'lchil azal-azaldan man etiladi. Boisi, qo'l chilga ilinmish qo'l yo chiqib ketadi, yo sinib ketadi.* (35-b.) *Chavandoz ovozi nordon-nordon bo'ldi, ammo xushtalqin bo'ldi. Do'mbirani sozimga soldim. Hakkalabosim-hakkalabosim nag'malarida chaldim.*(186-b.) *Kuyov belqars o'ray-o'ray eshik sari yurdi.* (232-b.)

Xulosa. O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad «Tog'ay Murod o'zbek tilini kuylatdi. O'zbek tilining jami jilvalarini oftobga solib ko'rsatdi, – degan edi



(Ahmedova, 2008: 6). Tog‘ay Murod asarlaridan parchalar nafaqat O‘zbekiston, balki Qozog‘iston maktablari uchun nashr qilingan adabiyot darsliklariga kiritilganligini (Qozog‘istondagi o‘zbek maktablari yozilgan 9-sinf darsligidan “Ot kishnagan oqshom” qissasidan parcha o‘rin olgan) alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Professor Q.Yo‘ldoshev Tog‘ay Murod qissalarining maktab darsliklariga kiritilishining bir jihati qissa («Yulduzlar mangu yonadi») bolalarda oriyat tuyg‘usini shakllantirishi, kishida o‘z yaqinlari, xalqi, millati orini olishga, vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qilishi, yaqinlari uchun javobgarlik hissini tuyishga o‘rganishi ko‘zlangan bo‘lsa, ikkinchi jihati Tog‘ay Murodning so‘zga bir qator qo‘shimcha funksiyalarni yuklashi, uning so‘zlari qo‘shiqdek qalblarni larzaga solishi, yozuvchi so‘zlari rassom singari portret chizishini qayd etgan edi (). Darhaqiqat, Tog‘ay Murod ijodida barq urib turgan jihat shuki, u faqatgina tilda avvaldan mavjud so‘zlardangina foydalanmagan, balki ba’zi hollarda ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta’sirchan ifodalaydigan so‘zlarni o‘zbek tili dialektlaridan topishga, lozim o‘rinlarda ularni o‘zi yasashga, original tarzda qo‘llashga intilgan. Bu hol Tog‘ay Murodning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi. Shuningdek, yozuvchi asarlarida qo‘llanilgan dialektal fonostilistik vositalarning qanday uslubiy vazifaga xoslanganligini to‘g‘ri anglagan holda tahlil etish asar mazmunini to‘laqonli anglash imkonini beradi. Ma’lumki, shevaga xos so‘zlardan o‘rinli, me’yor bilan foydalanish lozim, ortiqcha, noo‘rin qo‘llash esa asar saviyasiga putur yetkazadi. Bu fikrni Tog‘ay Murod ijodiga nisbatan qo‘llash mumkin emas. Chunki o‘z ijodiga o‘ta talabchan adib o‘quvchini bezdirmaydigan, aksincha huzur qilib qo‘shiq qilib o‘qiydigan o‘ziga xos uslub yaratishga erisha olgan. Darhaqiqat, Tog‘ay Murod “Hayot til bilan boshlanadi, hayot til bilan ado bo‘ladi. Shu bois, hayotga kelajak insonni: “tili chiqib-da”, deydi. Hayotdan ketajak insonni; tildan qolibdi», – deydi va asar poydevori til ekanligini ta’kidlagan edi. F.Jabborov ham bejiz ustoz Mahmud Sa’diyning “Tog‘ay Murod asarlarining tili mashhur turkiy bitiklarni eslatadi”, degan iqtibosini keltirmaydi (Ahmedova, 2008: 178). Bu Tog‘ay Murod asarlari ulug‘vorligining muhim omillaridan biridir.

O‘zbek adabiy tilining shakllanishi, taraqqiyoti va dialektal tarkibi masalasi turkiyshunoslikning diqqat markazida bo‘lib kelgan sohalaridan biri sanaladi. Kelajakda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar miqyosi yanada kengaytirilishi taqozo qilinadi. Binobarin, o‘zbek tili shevalarga boy ekanligi, tilimizdagi ko‘p dialektlilik boshqa qarindosh tillarni qiyosiy planda o‘rganish ishini ham osonlashtiradi va unga yordam beradi.



Adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedova M. Men qaytib kelaman: Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 180.
2. Ashurboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Navro'z, 2016.
3. Бейсенбай А.Б. Эбиш Кекілбаев шығармаларындағы окказионалдык қолданыстар. Филол. ғыл. канд..... авторефераты. – Астана: 2008. – 28 б.
4. Bauer L. English Word-formation. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
5. Dressler, Wolfgang & Tumfart, Barbara. (2017). New corpus-linguistic approaches to the investigation of poetic occasionalisms: The case of Johann Nepomuk Nestroy. Yearbook of the Poznan Linguistic Meeting. 3. 1-12. 10.1515/yplm-2017-0008.)
6. Enazarov T. va b. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
7. Еспекова Л. Қадыр Мырзалиев поэзиясындағы окказионализмдер. Филол. ғыл. канд.....авторефераты. – Алматы: 1998. – 25 б.
8. Фельдман, Н. И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. – 1957. – № 4. – С. 64-73.
9. Ҳасанов А. O'zbek adabiy tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishning dialektal asoslari. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 130 b.
10. Jomonov R. O'zbek tilining izohli lug'ati uchun dialektizmlardan so'z tanlash prinsiplari va ularning berilishi: Filol. fanlari nomzodi... dis. – T., 1991. – B. 55.
11. Кадыров З.Т., Саркенова А. Окказионализмы в творчестве С.Муканова. // Вестник Северо-Казахстанского университета им. М.Козыбаева. 2019. (4 (45)): 138-144.
12. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. Samarqand: Zarafshon, 1992.
13. Лопатин В.В. Рождение слова. Неологизмы и окказиональные образования. Москва : Наука, 1973.
14. Лыков А.Г. Современная русская лексикология (русское окказиональное слово). Москва : Наука, 1976. 118.
15. Матвеева Т.В. Полный словарь лингвистических терминов. – Ростов н/Д: Феникс, 2010. – С. 260.
16. Murod Muhammad Do'st. so'z qarshisida qo'rquv. // Tafakkur, 2023. – №1. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/23/mutolaa/>
17. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 115.
18. Ro'ziyev A. Tog'ay Murod chizgan suratlar. // Tog'ay Murod xirgoyilari. https://n.ziyouz.com/books/ilmiy-tarixiy_risolalar/Dilmurod%20Quronov%20va%20b.%20Tog'ay%20Murod%20xirgoyilari.pdf
19. Пацула Ю.Н. Окказионализмы новейшего времени: структурно-семантический и функционально-прагматический аспекты: автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2005.
20. Розенталь Д.Э. Словарь-справочник лингвистических терминов: Пособие для учителя. / Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. – 3-е изд., исп. и доп. – М.: Просвещение, 1985. – С.357.
21. Solijonov Y. XX asrning 80 – 90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: Filol. Fan. d-ri... diss. avtoref. – T., 2002.
22. To'xtasinova O. O'zbek tilida leksik okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari: Filol.fan.nomz. diss. avtoref. – T., 2007. – 26 b.
23. Tog'ay Murod chizgan suratlar. Q.Yo'ldoshev bilan suhbat. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/togay-murod-yurt-qoshigi.html>
24. Murod T. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2008. – B. 448.
25. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent, 1994. – B. 246.
26. Murod T. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent, 1994.
27. Тошалиева С.И. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Filol.fan.nomz... dis. – T., 1998. – B. 27.



28. Турдиева Ш.Б. (2020). Использование окказиональных слов в английском и узбекском языках в художественных произведениях. Американский журнал социальных наук и образовательных инноваций. 2 (08), 373-380. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue08-63>.
29. Umurkulov V. Poetik nutq leksikasi. – T.: Fan, 1990. – B.48 – 49.
30. Ханпира Э.И. Окказиональное словообразование В.В.Маяковского: (Отыменные глаголы и причастия): Автореф. дисс. на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Москва, 1966. – 16 с.
31. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Русский язык, 1981. – 591-bet.
32. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М., 1972.
33. Shoabdurahmonov Sh. So‘z hazinasi // O‘zbek tili va adabiyoti, 1993 yil. – №5-6. – B. 26-30.
34. Crystal D. Investigating Nonceness: Lexical Innovation and Lexicographic Coverage. Lewisburg: Bucknell University Press, 2010.

